




# NYSSB Rubric for the Culminating Project and Presentation in Modern Languages (Category 3-4)




Yakuniy loyiha va panel taqdimoti uchun umumiy yo'riqnomalar:

1. O'quvchilar uchta aloqa standarti bo'yicha majmuaviy baholanishi mumkin (interpretiv, shaxslararo, taqdim etish).
2. Bu rubrikadan loyihani o'zini (akademik esse, portfel) hamda loyihaning panelga og'zaki taqdimotini baholashda foydalanish mumkin.
  - a. Interpretiv rejim sinf rahbari yoki loyiha masalahatchisi tomonidan taqdimotdan oldin baholanishi mumkin.
  - b. Shaxslararo va taqdim etish rejimlari loyiha taqdimoti vaqtida baholanadi.
3. O'quvchilar baholanayotgan tilning malakali so'zlovchilari bo'lgan ikki yoki undan ko'proq yoshi katta odamdan iborat shahrlovchilar paneli tomonidan baholanishi lozim.
  - a. O'quvchining joriy o'qituvchisi loyiha va taqdimotdagi yolg'iz sharhlovchi bo'lmasligi lozim.
  - b. Maktablar sharhlovchilar panelida xizmat qilish uchun hamjamiyat a'zolari orasidan jalb qilishga targ'ib qilinsalar ham, baholovchilar o'quvchining yaqini bo'lmasligi lozim.
  - c. Agar taqdimot keng tarqalmagan tilda qilinsa yoki okrugda bu tilda faqat bitta yoshi katta odam so'zlashsa, paneldagi sharhlovchilar soni kamroq bo'lishi mumkin. Maktablar har bir til uchun kamida ikkita yoshi katta o'sha tilda so'zlovchi odam topishga urinishi lozim.
  - d. Butun taqdimot va panel suhbat baholanadigan tilda o'tkazilishi lozim.
4. O'quvchilar, ayniqsa ingliz tilini o'rganuvchilar va meros qolgan tilda so'zlovchilar dunyoning barcha qismlaridagi mamlakatlarni namoyon etishi mumkin va shuning uchun har qanday tilning "standart" versiyasiga nisbatan sezilarli darajada farqli lingvistik xilma-xillikni namoyish etishi mumkin. Toki bu jihatlar tushunishga to'siq bo'lmas ekan, panel a'zolari o'quvchining aksenti, talaffuzi yoki madaniy xos lug'ati tufayli past baholamasligi lozim.

<b>Yakuniy loyihaga oid baholash jadvali:</b>
<b>O'quvchining ismi va familiyasi:</b>
<b>Baholangan til:</b>
<b>Umumiy baholash:</b> Yakuniy loyiha va taqdimot NYSSB (oralik o'rtacha daraja) ishlab olish uchun talab etilgan malaka darajasini namoyish <input type="checkbox"/> etadi <input type="checkbox"/> etmaydi.
<b>Baholashni o'tkazgan shaxs (ism, lavozim):</b>
<b>Sana:</b>

Yo'naltiruvchi savollar	ERISHILGAN NATIJALAR KO'RSATKICHLARI					
	YANGI YUQORI	ORALIQ PAST	ORALIQ O'RTA	ORALIQ YUQORI	ILG'OR PAST	ILG'OR O'RTA
<p>1-standart: Interpretiv aloqa – O'quvchilar bir qator mavzularda eshitilgan, o'qilgan, qabul qilingan yoki ko'rilgan materialni tushunadi, talqin qiladi va tahlil qiladi, turli matnlarni, jumladan haqiqiy resurslarda chizadi.</p> <p style="text-align: center;"></p> <p>Men eshitadigan, o'qiydigan, qabul qiladigan yoki ko'radigan turli matnlarni*, jumladan haqiqiy resurslarni qanday tushunaman, talqin qilaman yoki tahlil qilaman?</p>	Men mavzuni va qisqa axborot beruvchi va adabiy matnlardagi ba'zi alohida faktlarni aniqlay olaman hamda suhbatlardagi sodda gaplardan olingan tanish savollar va fikrlarni tushunaman.	Men qisqa axborot beruvchi va adabiy matnlar va suhbatlardagi mavzu, asosiy g'oya va sodda gaplardagi aloqador axborotni aniqlay olaman.	Men qisqa bevosita axborot beruvchi va adabiy matnlar va suhbatlardagi asosiy g'oya va asosiy axborotni tushunaman.	Men odatda bevosita paragraf kattaligidagi matnlar, suhbatlar va muhokamalarda keladigan turli xil vaqt oraliqlaridagi asosiy g'oya, asosiy fikr va voqealar rivojini kuzata olaman.	Men matnlar, suhbatlar va muhokamalardagi ko'pchilik vaqt oraliqlaridagi asosiy va o'zak firklarni va ayrim qo'shimcha tafsilotlarni aniqlay olaman.	Men matnlar, suhbatlar va muhokamalardagi ko'pchilik vaqt oraliqlaridagi asosiy va o'zak firklarni va ko'pchilik qo'shimcha tafsilotlarni tushunaman.

<p>2-standart: Shaxslararo aloqa – O‘quvchilar axborot almashish va hissiyotlari, afzal ko‘radigan narsalari va mulohazalarini ifodalash maqsadida og‘zaki, vizual yoki yozma suhbatlarda o‘zaro aloqa qiladi va ma‘noni aniqlab oladi.</p> <p>Men qanday qilib axborot va g‘oyalarni o‘zaro almashaman va suhbatlarda afzal ko‘rgan narsalar va mulohazalarni ifodalayman, javob qaytaraman va qo‘llab-quvvatlayman?</p> 	<p>Men ko‘pchilik holatlarda axborot so‘ray olaman va taqdim eta olaman va asosiy ehtiyojlarni qondira olaman, tanish va kundalik mavzularda afzal ko‘rgan narsalar, hissiyotlar yoki mulohazalarni sodda gaplar va suhbatlardagi ba‘zi original savollar qorishmasi yordamida ifodalayman, so‘rayman va javob beraman.</p>	<p>Men axborot so‘ray olaman va taqdim eta olaman, sodda gaplar tuzish va suhbatlarda qo‘shimcha savollar berish orqali tanish mavzularda afzal ko‘rilgan narsalar, hissiyotlar yoki mulohazalar borasida ifodalayman, so‘rayman va javob beraman.</p>	<p>Men turli tanish va ba‘zi o‘rganilgan mavzularda gaplar va davomli gaplar tuzish hamda suhbatlarda qo‘shimcha savollar berish orqali axborot, afzal ko‘rilgan narsalar, hissiyotlar yoki mulohazalar almasha olaman.</p>	<p>Men turli tanish, aniq va o‘rganilgan mavzularda paragraflarni hosil qiluvchi bog‘langan gaplardan foydalanish va ko‘pincha turli vaqt oraliqlarida suhbatlar va muhokamalarda turli savollar berish orqali gohida murakkablikni ichiga oluvchi axborot, afzal ko‘rilgan narsalar, hissiyotlar yoki mulohazalarni almasha olaman.</p>	<p>Men boshqalar bilan axborot va g‘oyalar almashish, afzal ko‘rilgan narsalar va mulohazalarni tushuntirish va solishtirishni taqdim etish hamda turli vaqt oraliqlarida bir necha sodda paragraflardan foydalanish orqali bir qator tanish, aniq, akademik va ijtimoiy mavzulardagi kutilmagan murakkabliklarni ichiga oluvchi suhbatlarni olib borish uchun aloqa qura olaman va kelisha olaman.</p>	<p>Men boshqalar bilan axborot va g‘oyalar almashish, afzal ko‘rilgan narsalar va mulohazalarni tushuntirish va solishtirishni taqdim etish hamda turli vaqt oraliqlarida aniqlashtiruvchi savollar berish va batafsil javoblar berish orqali ko‘plab qiziqish uyg‘otgan mavzularda (tanish, notanish, aniq va ba‘zan akademik, ijtimoiy yoki professional) keng qamrovli suhbatlarni olib borish uchun aloqa qura olaman va kelisha olaman.</p>
<p>3-standart: Taqdim etish aloqasi – O‘quvchilar ko‘plab tinglovchilar, o‘quvchilar yoki tomoshabinlar auditoriyasiga moslangan mavzularda tasvirlash, axborot berish, hikoya qilish, tushuntirish yoki ishontirish maqsadida axborot va g‘oyalar taqdim etadi.</p> <p>Men tasvirlash, axborot berish, hikoya qilish, tushuntirish yoki ishontirish uchun axborot va g‘oyalarni qanday taqdim etaman?</p> 	<p>Men ko‘pchilik holatlarda hayotim va mashg‘ulotlarim haqida axborot taqdim eta olaman va tanish hamda har kungi mavzularda sodda gaplardan foydalanib afzal ko‘rgan narsalar va mulohazalarni bildira olaman.</p>	<p>Men hayotim va mashg‘ulotlarim haqida axborot taqdim eta olaman va tanish hamda har kungi mavzularda sodda gaplar tuzib va foydalanib afzal ko‘rgan narsalar va mulohazalarni bildira olaman va qo‘llab-quvvatlashga harakat qila olaman.</p>	<p>Men shaxsiy tajribalar, joriy axborotni hikoya qila olaman va bir qator tanish, aniq va o‘rganilgan mavzularda gaplar va davomli bog‘langan gaplardan foydalanib nuqtai nazarimni bildira olaman va qo‘llab-quvvatlay olaman.</p>	<p>Men tajribalar, joriy axborotni, jumladan tafsilotlarni hikoya qila olaman va bir qator tanish, aniq va o‘rganilgan mavzularda ko‘pincha turli vaqt oraliqlarida qisqa paragraflardan foydalanib nuqtai nazarimni bildira olaman va qo‘llab-quvvatlay olaman.</p>	<p>Men ba‘zi aniq, akademik, ijtimoiy va professional qiziqishga ega mavzularda katta vaqt oraliqlarida paragraflardan foydalanib taqdimotlar qila olaman va nuqtai nazarimni dalillar bilan bildira olaman.</p>	<p>Men ko‘plab aniq, akademik, ijtimoiy va professional qiziqishga ega mavzularda katta vaqt oraliqlarida tartibli paragraflardan foydalanib batafsil taqdimotlar qila olaman va dalillar bilan fikrlarimni bildira olaman.</p>

\*“Matn” so‘zi deb har qanday axborot tashuvchi vositaga aytiladi. Ushbu erishilgan natijalar ko‘rsatkichlariga oid maqsadlarda, matn bosma (masalan, infografika, maqola), audio (masalan, ashula, podkast), vizual (masalan, tasvir, surat) yoki audiovizual (masalan, musiqiy video, multimedia taqdimoti) resurs bo‘lishi mumkin.

#### Eslatmalar: